Teshaboyev Abbos Xoldorjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti
Arxeologiya kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
abbos030494@mail.ru, +998 99 977 10 71

O‘ZBEKISTONDA “MAHALLA” INSTITUTI RIVOJLANISHINING IJTMOIY TAHLILI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.7771261

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahallaning davlat ijtimoiy-siyosiy xayotida tutgan o‘rni, alloma va sarkardalarning o‘ziga xos falsafiy qarashlari hamda yoshlarimiz ta’lim-tarbiyasidagi ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek mahallasi, Tarixiy taraqqiyot, Abu Ja’far Narshaxiy “Buxoro tarixi”, Farobiy, Amir Temur “Temur tuzuklari”, Davlat boshqaruvi, mahalla oqsoqollari

KIRISH

Eng qadimiy qadriyatlarimizdan hisoblangan, xalqimizning qon-qoniga singib ketgan, o‘zbek xalqining yashash tarzini o‘zida to‘la-to‘kis mujassam etgan mahalla jamiyatdagi munosib o‘rnini tiklab bormoqda. O‘zbek mahallasi - xalqimizga xos donishmandlik timsoli hisoblanib,u tarixda ham o‘z jozibasi, hayotiyligi, xalqchilligi, betakrorligi bilan dunyo ahli tafakkurini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Moziydan tortib hozirgacha o‘zbek mahallalari o‘zining ko‘pgina ezgu amallarini, xosiyatli, barakatli tadbirlarini, hayotiy muhim masalalarini mahallada oqsoqollar, faollar aql-zakovati, adolatli nazorati bilan amalga oshirib, hal qilib keladilar [1].

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “... bugun mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqishi zarur. Chunki faollar, ko‘pni ko‘rgan oqsoqollar, tajribali nuroniylarimiz, agar istasa, jamoatchilik bilan birgalikda har qanday muammoni xal qilishga, xato qilgan yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga solishga qodirdir[2], degan so‘zlari bu sohani yangi davrga olib chiqdi.

Chindan ham o‘zbek mahallalari uzoq yillik tarixga ega bo‘lib, hozirgi O‘zbekiston hududida o‘zini-o‘zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli - mahalla azaldan mavjuddir. Odamlar to‘da-to‘da yashay boshlaganlarida bir-birlarining issiq-sovug‘idan, hol-ahvoli, g‘am-kulfati-u, hursandchilik - shodliklaridan doimo xabardor bo‘lib kelganlar [3].

ADABIYOTLARNING TAHLILI

Maqola yuzasidan yurtimizning faoliyat yuritgan taniqli olimlarining ilmiy tadqiqotlarida Mahalla instituti rivojlanishining ijtimoiy falsafiy tahlili va bu bo‘yicha ularning fikrlari, shuningdek, bir qator olimlarning Mahalla instituti riojlanishining ijtimoiy-falsafiy tahlili tadqiq etilgan.

Manbalarni o‘rganish, tahlil etish jarayonida tug‘ilgan mantiqiy xulosaga ko‘ra, odamlar ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi ko‘chmanchilikdan o‘troq hayotga o‘tib, jamoa bo‘lib yashay boshlaganlarida mahalla tizimining ibtidoiy unsurlari, qadriyatlari, kasb-hunar malakalari, ro‘zg‘or tebratish, o‘zaro mol ayirboshlash, topilgan ne’matlarni o‘rtada baham ko‘rish asoslari shakllana boshlagan [4]. Sharqda Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida boshqaruv jarayonini amalga oshirishda adolat me’zoniga qat’iy amal qilish va kengash bilan maslahatlashish kerakligi ta’kidlanadi.

Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining nazariy masalalari mamlakatimizda: Sh.Jalilov, I.Jurayev, Yo.Ollamov, O.Xusanov, D.Bekchanov, Sh.Fayziyev va S.Xidirov kabi olimlarning izlanishlarida keng yoritib berilgan. Mazkur tadqiqotchilar asarlarida asosiy e’tibor mahalliy hokimiyat faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslariga qaratilgan bo‘lib, unda mahalliy boshqaruv me’yoriy jihatdan ko‘proq talqin etilgan. Qolaversa, R.Jumayev, A.Japilov, M.Turaqulov, B.Jurayev va

X.Jurabekovalarning asarlarida davlat boshqaruvini demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyatining ahamiyati hamda nomarkazlashtirish jarayoniga oid nazariy jihatlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Tarixiy adabiyotlarda ham mahallalarning ko'p ming yillik tarixga ega ekanligi to'g'risida guvohlik beruvchi dalillar keltiriladi. Qadimgi Sharqning taniqli mutafakkirlaridan biri Abu Ja'far Narshaxiy IX asrda yozgan "Buxoro tarixi" kitobida Buxoroda bundan 1100 yil ilgari 19 ta katta-katta mahalla mavjud bo'lganligi va bu mahallalar o'zini-o'zi idora qilinganligi, bu qadimgi Sharq mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston hududida vujudga kelgan ilk davlatlar va ularning boshqaruv faoliyatida ham yorqin ifodasini topganligini ta'kidlab o'tgan [5]. Bundan tashqari, Faylasuf olim Farobiy esa mahalla borasida shunday deb yozgan: har bir inson tabiatdan shunday tug'ilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, ammo bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi. Ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga extiyoj tug'iladi [6].

Mahallalar ayniqsa Amir Temur tuzgan davlatda jadal rivojlangan, gullab – yashnagan davri bo'lib, o'sha vaqtlarda mahallalar fuqarolarning kasb-kori asosida tashkil qilingan. Masalan, etikdo'zlar, pichoqchilar, temirchilar bir joyda yashab mehnat qilishganlar. Bu haqda "Temur tuzuklari"da yozilishicha, buyuk Amir Temur o'zi barpo etgan bepoyon va qudratli saltanatni boshqarishda mahallaning mutasaddi shaxslariga tayangan, ular bilan yaqin muloqotda, doimiy mashvaratda bo'lgan, kezi kelganda ularning faoliyatini bevosita qo'llab-quvvatlagan [7].

Alisher Navoiy o'zining "Majolisun-nafois" tazkirasida mahallalar xususida quyidagi ma'lumotlarni yozgan: "Do'stmuhammad-Marg'iloniy mahallasidandur. Ham she'rga, ham muammoga ta'bi yaxshidur". Alisher Navoiy mahalladoshlar o'rtasida hurmat, tenglik mavjud bo'lganligini, shoh-u gadoning bir-biriga munosabatida g'amxo'rlik qadrlanganligini ta'kidlab o'tadi [8].

Shuning uchun ham mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng xalqimizning urf-odat, an'ana, qadriyat va udumlarini tiklash hamda mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishning asosiy omillaridan biri sifatida "mahalla" institutini tiklash, rivojlantirish va uning faoliyatini izchillik bilan amalga oshirishga katta e'tibor qaratildi va hozirgi kunda bu soha borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni olib borishda tarixiylik, qiyosiylik, kuzatish, emperik tadqiqot, mantiqiylik, tizimlilik, o'zaro aloqadorlik ilmiy tadqiqot tamoyillaridan kelib chiqqan holda qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotimiz davomida shunga amin bo'ldikki, o'zini-o'zi boshqarish organlarining asosiy bo'g'ini bo'lmish mahalla instituti boshqa davlatlarda deyarli uchramaydi. Bundan bir necha yil avval xorijlik folklorshunos Yakob Zingter poytaxtimiz misolida o'zbek milliy urf-odat va an'analari bilan yaqindan tanishib, shunday degandi: "Men eng go'zal insoniy munosabatlar, qutlug' an'ana-yu, urf-odatlar mahallada tug'ilib, yashayotganiga guvoh bo'ldim. O'zbek xalqining bag'rikengligi, mehridaryo va donishmandligi zamirida ham mahalla degan tushuncha yotar ekan. Xorijda bunday gap yo'q hamma o'zi uchun yashaydi. Sizlarda esa mahalla odamlarni bir-biriga bog'lab turadi" [9]. Haqiqatda ham mahalla instituti diyorimizda tarixan tarkib topgan o'ziga xos tuzilmadir. Mahallada odamlar bir-biriga doimiy ravishda jamoatchilik asosida yordam qiladilar.

Mahalla instituti xaqida ma'lumotlar bergan faylasuf va olimlarning tadqiqotlarini o'rganar ekanmiz mahallaning xalqimiz o'tmishi va kelajagida ahamiyati qanchalik kata ekanligini yana bir bora amin bo'ldik.

Ayni vaqtda yurtimizda mahalla tizimini takomillashtirish maqsadida "Mahalla va oila" ilmiy tadqiqot instituti tashkil etildi va institut oldiga quyidagi vazifalar belgilab

berildi:

jamiyatda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyiliga asoslangan tizimni to'laqonli va samarali joriy etish;

mahalla va oila institutlarini mustahkamlash, xotin-qizlar va keksalarni qo'llab-quvvatlash;

mahallalar va oilalarda sog'lom va barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda tinchlik totuvlik va osoyishtalikni ta'minlash;

o'z faoliyati yo'nalishlari bo'yicha Respublikadagi ta'lim-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshirish;

ommaviy axborot vositalari, jumladan televediniya va internet-resurslarida ilmiy tadqiqotlar natijalarini keng yoritish kabi vazifalar amalga oshirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Mustaqillik davrida o'zini o'zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida isloh etish o'zining samarasini berdi. Mahallalar mamlakatdagi aholini o'zini o'zi boshqarish jarayonlarida ishtirok etishlari, qarorlar qabul qilishda fuqarolar xohish va istaklarini e'tiborga olishga imkoniyatlar yaratishi bilan fuqarolik jamiyati institutiga aylanib bormoqda.

Shuningdek, mahallalar mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarda faol qatnashmoqda. Yangi O'zbekistonning yangi bir islohoti amalga oshirildi. Jumladan, mamlakatimiz hududida mahalla asrlar osha takomillashib, sayqallashib obod maskanlardan biriga aylandi.

Takliflar. 1. O'zbek mahallalari toponimlarini qayta ko'rib chiqish,

2. Joy nomlarini qo'yishda tarixiy kelib chiqishini inobatga olish,

3. Mahallalarda milliy qadriyatlarimizdan kelib chiqgan holda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish,

4. Mahallalarda yoshlarni jalb qilish maqsadida milliy sport o'yinlarini tashkil etish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Жалилов Ш.И, Кучли давлатдан - кучли жамият сари: тажриба, таҳлил, амалиёт. Ўзбекистон, 2001. 11-б.

2. Маҳалла-тинчлик ва осойишталик, ободлик ва фаровонлик марказига айланади. "Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 12 февраль куни маҳалла тизимини такомиллаштириш, маҳаллаларда тинчлик-осойишталикни мустахкамлаш, жиноятчиликнинг олдини олиш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши // Халқ сўзи. 13 февраль. № 32.- Тошкент, 2020.

3. Қодиров Д. Маҳалла тарбия маскани. -Т.: Хаёт ва қонун, 1999. №8. 19-216.

4. Рахмонов Р. Истиқлол ва Маҳалла. - Т.: Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2001, №1.4-6.

5. Мухаммад ибн Жаъфар ан Наршахий. Бухоро тарихи. Мерос. Т.: Камалак, 1991

6. Фаробий. "Фозил одамлар шаҳри". - Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ. мероси нашриёти, 1993. 222. б.

7. Темур тузуклари. Я.ғуломов номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. - Т. 1993. 344. б.

8. А. Навоий. Мажолисун-нафоис.

Teshaboyev Abbas Kholdorjan ugli
Namangan State University
Trainee-teacher of the Department of Archaeology
abbos030494@mail.ru, +998 99 977 10 71

SOCIAL ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF THE "MAHALLA" INSTITUTE IN UZBEKISTAN

Annotation: This article describes the role of the Mahalla (neighborhood) in the social and political life of the state, the unique philosophical views of scholars and generals, and the importance of the education of our youth.

Key words: Uzbek neighborhood, Historical development, Abu Ja'far Narshahi "History of

ISSN: 2181-4279

Bukhara", Farabi, Amir Temur "Temur's rules", State administration, neighborhood elders

Тешабоев Аббаса Холдоржана угли
Наманганский государственный университет
Стажер-преподаватель кафедры археологии
abbos030494@mail.ru, +998 99 977 10 71

СОЦИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ИНСТИТУТА "МАХАЛЛА" В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В этой статье изложены взгляды на роль махалли в государственной общественно-политической жизни, философские взгляды ученых и военачальников, а также их значение в образовании и воспитании молодежи.

Ключевые слова: узбекская махалля, историческое развитие, "История Бухары" Абу Джафара Наршахи, Фараби, "Уложение Тимура" Амира Темура, государственное управление, старейшины махалли